

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.I.11.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

NORMURODOVA ZEBO ESHMAXMATOVNA

MAISHIY XIZMATLARDA KLASSTER VA RESURS
SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION
MEXANIZMLARI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)

08.00.05 –Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Qarshi - 2026

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of of dissertation abstract of Doctor of philosophy (PhD) on
economical sciences**

NORMURODOVA ZEBO ESHMAXMATOVNA

Maishiy xizmatlarda klaster va resurs samaradorligini oshirishning innovatsion mexanizmlari (Qashqadaryo viloyati misolida)3

НОРМУРОДОВА ЗЕБО ЭШМАХМАТОВНА

Инновационные механизмы повышения кластерной и ресурсной эффективности в сфере домашнего обслуживания (на примере Кашкадарской области).....32

NORMURODOVA ZEBO ESHMAKHMATOVNA

Innovative mechanisms of increasing cluster and resource efficiency in household services (on the example of Kashkadaryo region)65

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список объявленных работ

List of published works.....69

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.I.11.03-RAQAMLI ILMIY KENGASH

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

NORMURODOVA ZEBO ESHMAXMATOVNA

**MAISHIY XIZMATLARDA KLASTER VA RESURS
SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION
MEXANIZMLARI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)**

08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlar iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Qarshi - 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2026.1.PHD/Iqt6331 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiya Qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.qarshidu.uz) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xalimov Javlonbek Shaxriyorovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Qodirov Farruh Ergash o'g'li
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Abdug'aniyev Otabek Allajonovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor


Yetakchi tashkilot:

Namangan davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.I.11.03-raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "19" "08" soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 180119, Qarshi sh., Ko'chabog' ko'chasi, 17-uy. Tel.: (+998 75) 221-21-04, faks: (+998 75) 220-02-10, e-mail: info@qarshidu.uz).

Dissertatsiyasi bilan Qarshi davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (441-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 180119, Qarshi sh., Ko'chabog' ko'chasi, 17-uy. Tel.: (+998 75) 221-21-04).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "08" "08" kuni tarqatildi.
(2026-yil "08" "08" dagi 17 -raqamli reyestr bayonnomasi).



D.X. Nabiyev
Ilmiy darajalar beruvchi
kengash raisi, i.f.d.,
professor

G'.A. Nabiyev
Ilmiy darajalar beruvchi
kengash kotibi, i.f.d.,
professor

A.O. Ochilov
Ilmiy darajalar beruvchi
kengash qoshidagi Ilmiy
seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi).

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi va xizmatlar bozorida raqobatning kuchayishi sharoitida xizmatlar sohasi iqtisodiy o'sishning muhim omiliga aylanib bormoqda. Jahon banki va BMT ma'lumotlariga ko'ra, xizmatlar sektorining jahon yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 65 foizdan ortiqni, rivojlangan mamlakatlarda esa 70-80 foizni tashkil etadi¹. Shu bilan birga, xizmatlar sohasida band bo'lgan aholi ulushi ko'plab davlatlarda 70 foizdan oshgan². Biroq xizmatlar bozorida resurslardan samarasiz foydalanish, xizmatlar sifati va raqobatbardoshligining hududlar kesimida notekis rivojlanishi, raqamlashtirish darajasining pastligi hamda xizmat ko'rsatuvchi subyektlar o'rtasidagi kooperatsion aloqalarning sustligi kabi muammolar saqlanib qolmoqda. Ayniqsa, maishiy xizmatlar sohasida innovatsion boshqaruv mexanizmlarini joriy etish va klaster yondashuvini rivojlantirish masalalari dolzarb ilmiy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, maishiy xizmatlar sohasida innovatsion boshqaruv mexanizmlarini joriy etish va klaster yondashuvi asosida resurslar samaradorligini oshirish masalalari alohida ilmiy ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonning rivojlangan mamlakatlarida globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari xizmatlar bozorining tarkibiy o'zgarishlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sharoitda maishiy xizmatlar sohasini samarali tashkil etish va boshqarish, xizmatlar bozorining moslashuvchanligini oshirish, institutsional muhitni takomillashtirish hamda raqobatbardoshlikni kuchaytirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar kengayib bormoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) Xususan, BMTning 2030-yilgacha bo'lgan barqaror rivojlanish maqsadlari, Jahon savdo tashkilotining (JST) Xizmatlar savdosi bo'yicha Bosh kelishuvi (General Agreement on Trade in Services – GATS), Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (Organisation for Economic Co-operation and Development – OECD) tavsiyalari hamda Yevropa Ittifoqining "Digital Europe Programme" dasturi xizmatlar sektorida innovatsiyalar va samaradorlikni oshirishning muhim institutsional asoslarini shakllantirmoqda. Shuningdek, xizmatlar ko'rsatish jarayonlarida zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish, mehnat munosabatlarining moslashuvchan shakllaridan foydalanish, klaster subyektlari o'rtasidagi kooperatsiyani rivojlantirish hamda Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) standartlarini amaliyotga tatbiq etish orqali xizmatlar bozorining barqaror rivojlanishini ta'minlash masalalari ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Yangi O'zbekiston iqtisodiyotida ham so'nggi yillarda xizmatlar sohasini, jumladan maishiy xizmatlarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2020-2025 yillar davomida xizmatlar sohasi hajmining barqaror o'sish tendensiyasi kuzatilgan bo'lib, mazkur jarayon 2026-yilda ham davom etishi prognoz qilinmoqda. Rasmiy statistik va prognoz hisob-kitoblarga ko'ra, 2026- yilda maishiy

¹ World Bank. World Development Indicators. Services, value added (% of GDP). Washington, DC: World Bank Group, 2024.

² United Nations Conference on Trade and Development (UNCTAD). World Investment Report 2024. Geneva: United Nations, 2024.

xizmatlar ko'rsatish hajmi 2020 yilga nisbatan o'rtacha 1,8 barobarga oshishi kutilmoqda³. Ushbu o'sish aholining real daromadlari ortishi, xizmatlar turlarining diversifikatsiyalashuvi, tadbirkorlik subyektlari faolligining kuchayishi hamda raqamli texnologiyalarni joriy etish bilan izohlanadi. Shu nuqtai nazardan, 2026-yil statistik ko'rsatkichlari va prognoz natijalari maishiy xizmatlar sohasida klaster yondashuvini qo'llash, resurs samaradorligini oshirish hamda xizmatlar sifati va hajmini barqaror oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar dolzarbligini to'liq asoslaydi. Mazkur holat dissertatsiya mavzusining nazariy va amaliy jihatdan ahamiyatli ekanligini tasdiqlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2017-yil 24-maydagi PF-5052-son "Xizmatlar sohasini yanada rivojlantirish hamda ular faoliyati samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2018-yil 11-iyundagi PQ-3782-son "Aholining ijtimoiy zaif qatlami bandligini ta'minlashni rag'batlantirishning tashkiliy chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 24-oktabrdagi PQ-4498-son "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish davlat dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan loyihalarni kreditlash tartibini takomillashtirishning qo'shimcha chora- tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 8-iyundagi PQ-4742-son "Tadbirkorlik faoliyati va o'zini o'zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-yanvardagi "Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-104-son Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-iyuldagi PQ-238-son "Xizmatlar yo'nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-fevraldagi "Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-78-son Qarorida, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Xizmat ko'rsatish va servis sohasi rivojlanishining ilmiy-metodologik jihatlarini ko'plab xorijlik olimlar, jumladan: Dj.M.Keyns, Y.A.Shumpeter, M.Y.Porter, K.X.Xaksever, R.G.Merdik, W.D.Nordhaus, S.N.Korobkova, G. S. Becker, F. Kotler, K. Keller, P.A.Samuelson, M.Drabenstott, V.I. Kravchenko, G.Fields, va B.R.Render, R.S.Rassel boshqalar tomonidan tadqiq qilingan⁴. MDH olimlaridan, E.A.Razomasova, T.D.Burmenko

³ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi - <https://stat.uz>

⁴ Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег. – Москва: МИЭМП, 2010. - 352 с.; Шумпетер Й.А. История экономического анализа / Пер. с англ.; под ред. В.С. Автономова. В 3-х томах. – Санкт-Петербург:

va Yu.P.Sviridenko, Ye.G.Yasin, hamda S.Yu.Glazev, O.V.Koneva, N.A.Solovyova, A.G.Aganbegyan, T.A.Agapova, S.F.Seregina, Z.I.Belikina, V.M.Dmitrev, V.N.Kryajev, V.S.Nemchinov, V.K.Romanovich, N.Yu.Stoyushko, S.A.Maxosheva M.V.Shebenkov, D.A.Xomjakov, E.V.Sherbina hamda E.V.Gorbenkova va boshqalarning tadqiqotlarida keng yoritilgan⁵.

Ushbu muammolarni o'rganishga O'zbekistonlik olimlardan Y.A.Abdullayev, Q.J.Mirzayev, M.M.Muxammedov, B.A.Abdukarimov, M.Q.Pardayev, I.S.Tuxliyev, J.R.Zaynalov, A.Ahmedov, N.To'xliyev, E.S.Fayziyev, M.G.Xan, R.X.Ergashev, U.R.Matyakubov, F.A.Zulunova, J.I.Isroilov, A.Q.G'apparov, Sh.O.Quvondiqov, G.N.Axunova, Sh.Sh.Shodmonov, U.V.G'afurov, B.Qo'ziboyev⁶ va boshqalarning ilmiy ishlarida atroflicha o'rganilgan.

Экономическая школа, 2004. – Т. 1-3.– 1664 с.; Портер М.Й. Конкурентное преимущество: как достичь высокого результата и обеспечить его устойчивость / пер. с англ. Е. Калининой. – Москва: Алпина Паблишер, 2016. – 1020 с.; Свириденко Й.П. Сервисная деятельность.- М.: Алфа-М, 2009-208 с.; Samuelson P. A., W. D Nordhaus. Economics. – New York: McGraw-Hill, 2010-774 p.; Becker G. S. Human Capital. – Chicago: University of Chicago Press, 2018.-412 p.; Романович В.К. Сервисная деятельность. – Санкт-Петербург: Питер, 2005. – 156 с. 33.; Kotler P., Keller K.L. Marketing Management. – 16th Global Edition. – Harlow: Pearson Education Limited, 2022. – 832 p 28. Fields G.S. Labor Economics and Development. – Cham, Switzerland: Springer International Publishing, 2019. – 328 p.; Drabenstott M. New policies for a new rural America // International Regional Science Review. – 2001. – №24. – Р. 3-15. Хаксвер К.Х., Рендер Б.Р., Рассел Р.С., Мердик Р.Г. Управление и организация в сфере услуг: теория и практика //Service Management and Operations / пер. с англ.; под науч. ред. В.В. Кулибановой. – 2-е международное изд. – Санкт-Петербург: Питер, 2002. – 751 с.

⁵ Разомасова Е.А. Сфера услуг: теория, состояние и развитие. – Новосибирск, 2011. – 268 с.; Бурменко Т.Д. Сфера услуг: экономика.- Москва: КНОРУС, 2006. – 424 с.; Свириденко Ю. П. Сфера услуг: проблемы и перспективы развития. -М.: Кандид, 2001. – 176 с.; Ясин Е.Г. Новая экономика. – Москва: Экономика, 2003. – 544 с.; Романович В.К. Сервисная деятельность: учеб. пособие / под общ. ред. В.К. Романович. – 3-е изд. – СПб.: Питер, 2005. – 156 с.; Глазьев С.Ю. Теория долгосрочного технико-экономического развития. – Москва: ВлаДар, 1993.– 310 с.; Аганбегян А.Г. Экономика и социальное развитие. – Москва: Экономика, 1989. – 520 с.; Т.А.Агапова., Серегина С. Ф. Макроекономика: учебник / под общ. ред. А. В. Сидоровича.- М.: Дело и Сервис, 2007. – 512 с.; З.И.Беликина Экономика: учебно-методический комплекс.- Москва: Проспект, 2015.- 224 с. Дмитрев В.М. Основы изучения и прогнозирования спроса на бытовые услуги. – Москва: Экономика, 1980.– 256 с.; Сфера обслуживания при социализме.- Москва, 1966. – 192 с.; Немчинов В.С. Экономико-математические методы и модели. – Москва: Наука, 1962.– 412 с.; Стоюшко Н.Ю. Тенденции развития предпринимательства в сфере услуг: дис. ... канд. экон. наук. – Владивосток, 2008.– 184 с.; Махосева С.А. Методические принципы и подходы к формированию модели развития региональной сферы услуг // Известия Кабардино-Балкарского научного центра Российской академии наук. – 2009. – № 3 (29). – С. 95-101.; Конева О.В., Соловьёва Н.А. Малый бизнес: оценка вклада в развитие сферы услуг.- Красноярск, 2009.- 158 с.; Шебенков М.В., Хомжаков Д.А. Городские агломерации: мысли о настоящем и будущем // Акад. Архитектура и Строительство. – 2015. – С. 86-91.; Горбенкова Э.В., Щербина Э.В. Методологические подходы к моделированию развития сельских поселений // Vestnik MGSU (Proceedings of Moscow State University of Civil Engineering). – 2017. – Vol. 12. – Issue 10 (109). – P. 1107–1114. – DOI: 10.22227/1997-0935.2017.10.1107-1114.

⁶ Y.A.Abdullayev Bozor iqtisodiyoti asoslari. -T.: Mehnat, 2002.-432 b.; Y.A.Abdullayev. Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari -T.: Mehnat, 2000.-352 b.; Q.J.Mirzayev Agro servisni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari. – T. Fan va texnologiyalar, 2007,-16 b.; M.M. Muxammedov Xizmat ko'rsatish soxasi va turizmni rivojlantirishning nazariy asoslari. Monografiya. Samarqand: “Zarafshon”, 2017.-300 b.; M.M. Muxammedov va boshq. Mintaqa iqtisodiyotining zamonaviy muammolari. – Toshkent: Lesson Press, 2020. – 284 b.; Abdukarimov B.A. Ichki savdo iqtisodiyoti. II qism. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010. – 312 b.; Pardayev M.Q., Isroilov J.I., G'apparov A.Q. Xizmat ko'rsatish sohasida iqtisodiy tahlilni takomillashtirish muammolari. Risola. Samarqand. “Zarafshon”, 2009. – 66 b.- 4,1 b.t.; M.Q. Pardayev Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Darslik. (uchinchi qayta ishlangan nashri)- T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi” DUK, 2020.- 588 b.; M.Q Pardayev., F.A Zulunova. Pul oqimlari tahlili. Uslubiy qo'llanma. Samarqand, 2019.- 52 b.; To'xliyev N. O'zbekiston iqtisodiyoti. – Toshkent: O'qituvchi, 1994. -368 b.; E.S. Fayziyev Servis sohasining iqtisodiyotdagi o'rni. Risola. T.: ‘Fan va texnologiya’, 2007.- 16 b.-1,0 b.t.; Axunova G.N., Shodmonov Sh.Sh., G'afurov U.V. Iqtisodiyot asoslari: o'quv qo'llanma.- Toshkent: Iqtisodiyot, 2016.- 384 b.; Ergashev R.X. Xizmat ko'rsatish korxonalari faoliyati samaradorligini oshirish yo'llari. // Innovatsion rivojlanish asosida milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash: muammolari, echimlari va istiqbollari. -Qarshi: RIAA., 2015- B. 259-261.; Зайналов Ж. Р., Ахмедов А. Теоретические аспекты развития сферы услуг // Сервис. – 2010. – №1.; Matyakubov U., B.Qo'ziboyev. Hudud iqtisodiyotini rivojlantirishda kichik biznesning roli. “Hududni ijtimoiy

O'zbekistonda bu sohada boshqa iqtisodchi olimlar ham samarali ilmiy tadqiqotlar olib borishgan va olib borishmoqdalar. Biroq Respublikada xizmatlar sohasi masalalari tarkibiy o'zgarishlar bilan bog'liq holda yondoshilgan, bu jarayonlarning, xizmatlar sohasidagi xususan, maishiy xizmat ko'rsatish sohaslarida resurslar samaradorligi masalalarini aks ettiruvchi ilmiy tadqiqotlar olib borilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Qarshi davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning metodologik asoslarini takomillashtirish" mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi maishiy xizmatlar sohasini klaster yondashuvi asosida resurslar samaradorligini oshirishga qaratilgan innovatsion mexanizmlarni ilmiy asoslash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

maishiy xizmatlarda klasterlash va resurs samaradorligini oshirishda nazariy yondashuvlarni o'rganish;

maishiy xizmatlarda klasterlash jarayoning innovatsion ahamiyatini asoslash;

maishiy xizmatlarda resurslar samaradorligini oshirish va klasterlashda xorij tajribasini mamlakatga qo'llash tajribalarini o'rganish;

maishiy xizmatlarda resurslarini innovatsion klasterlashning ijtimoiy foydalanish xolatini tahlil qilish;

maishiy xizmatlar klasterini raqamli platformalar asosida rivojlantirish orqali xizmat sifati oshirish modellarini ishlab chiqish;

Qashqadaryo viloyatida maishiy xizmatlar klasteri faoliyatini ta'minlovchi elektron biznes axborot bazasini yaratish;

maishiy xizmatlarda samarali faoliyatining asosiy klasterlar yo'nalishlarining raqamlashtirilgan mexanizmlarini nazariy jihatlarini asoslash;

hududlarda maishiy xizmatlar bozorini rivojlantirish deversifikatsiya va segmentatsiyalashning tamoyillarini yoritish;

maishiy xizmatlar ko'rsatishda resurslardan samarali foydalanishning istiqbolli ko'rsatkichlari ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Qashqadaryo viloyati maishiy xizmatlar sohasida klasterlash asosida shakllanayotgan hududiy xo'jalik tizimi tanlangan.

Tadqiqotning predmetini maishiy xizmatlar sohasida klasterlash asosida resurslar samaradorligini oshirishni ta'minlovchi tashkiliy-iqtisodiy va innovatsion mexanizmlar majmuasidir.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tizimli tahlil, mantiqiylik, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, qiyosiy tahlil, empirik, monografik tahlil SWOT-tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqot ishining ilmiy yangiliklari quyidagilardan iborat:

maishiy xizmatlar ko'rsatish sohasini klasterlash va resurslardan foydalanish

iqtisodiy rivojlanishining strategiyasini ishlab chiqish yo'nalishlari" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani, Urganch shahri, 2015 yil 20 noyabr.(2-jild), UrDU noshirlik bo'limi, B.58-60; Quvondiqov Sh.O. Xizmat sohasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish muammolari. Iqtisod fanlari nomzodi. Dis. avtoreferati. Samarqand: SamISI, 2008.- 23 b.;

samaradorligini oshirishning davlat-hududiy integratsiyalashgan konseptual modeli ishlab chiqilib, unda maishiy xizmatlar klasterining funksional va institutsional darajalari hamda infratuzilmaviy resurslarning integratsiyasi orqali Kooperatsiya → Raqamlashtirish → Standartlash → Servis innovatsiyasi → Bozor samaradorligi imkoniyatlari ilmiy jihatdan asoslangan;

maishiy xizmatlarda resurslarni innovatsion klasterlash jarayonining konseptual yondashuv asosida maishiy xizmatlarda messijerlik samarasi $MQ_m = \frac{S}{C \cdot T \cdot I}$ taklifi vaqt va xarajatlarni kamaytirish uchun “raqamli aqlli xizmatlar” modeli taklif etilib, unda xizmat ko‘rsatish sifati va shaffofligini oshirilganligi hamda (hisob-kitob, tavakkalchilik va operatsion xatarlarni boshqarish bloklari bilan) ishlab chiqilganligi ilmiy asoslangan;

maishiy xizmatlar bozorida diversifikatsiya va segmentatsiyani amalga oshirish modeli asosida Qashqadaryo viloyatida maishiy xizmatlar sohasini boshqarish va muvofiqlashtirishning tashkiliy-iqtisodiy tuzilmasi asosida mehnat unumdorligini oshirish va rentabellikni hisoblashda raqamlashtirishdan oldin 36.6% raqamlashtirishdan keyin 83.3% ga oshganligi ilmiy asoslangan;

Qashqadaryo viloyati aholisi uchun maishiy xizmatlar hamda texnik va servis yo‘nalishidagi maishiy xizmatlarni rivojlantirish bo‘yicha 2026-2030-yillarga mo‘ljallangan prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

maishiy xizmatlar sohasini klasterlash va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishning davlat-hududiy integratsiyalashgan konseptual modeli asosida hududiy boshqaruv organlari hamda xizmat ko‘rsatish korxonalari faoliyatini muvofiqlashtirish mexanizmlari ishlab chiqildi va ularni amaliyotda qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar shakllantirilgan;

maishiy xizmatlar korxonalarida vaqt, xarajat va axborot oqimlarini boshqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi “raqamli aqlli xizmatlar” modeli hamda messijerlik samaradorligini baholash uslubiyati amaliy faoliyatga tatbiq etish uchun taklif etilgan;

Qashqadaryo viloyatida maishiy xizmatlar bozorini diversifikatsiyalash va segmentatsiyalash asosida xizmat ko‘rsatish subyektlarini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi ishlab chiqilib, uni joriy etish orqali korxonalar rentabelligi va mehnat unumdorligini oshirish imkoniyatlari asoslab berilgan;

Qashqadaryo viloyatida maishiy xizmatlar hamda texnik-servis xizmatlarini rivojlantirish bo‘yicha ishlab chiqilgan 2026-2030-yillarga mo‘ljallangan prognoz ko‘rsatkichlardan hududiy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish, investitsiya loyihalarini shakllantirish va xizmatlar bozorini strategik rejalashtirishda foydalanish bo‘yicha amaliy tavsiyalar tayyorlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi qo‘llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, statistik ma’lumotlar rasmiy manbalardan olinganligi, berilgan ilmiy-nazariy taklif va tavsiyalar amalda sinovdan o‘tkazilganligi, amaliyotga joriy etilganligi va ularning natijalarini vakolatli davlat organlari tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining

ilmiy ahamiyati nazariy-uslubiy ahamiyatga molik xulosa va takliflardan maishiy xizmat ko'rsatish sohalarida resurslar samaradorligini baholash va oshirishning uslubiy asoslarini takomillashtirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati maishiy xizmat ko'rsatish sohalarida mehnat resurslari samaradorligini oshirish, ish o'rinlarini tashkil etish va bandligini ta'minlash bo'yicha tarmoq va hududiy dasturlar, kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish, sohaga oid huquqiy- meyoriy hujjatlarni tayyorlash (takomillashtirish) hamda mazkur yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlar va o'quv adabiyotlarini tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Maishiy xizmatlarda klaster va resurs samaradorligini oshirishning innovatsion mexanizmlari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

maishiy xizmatlar ko'rsatish sohasini klasterlash va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishning davlat-hududiy integratsiyalashgan konseptual modeli ishlab chiqilib, unda maishiy xizmatlar klasterining funksional va institutsional darajalari hamda infratuzilmaviy resurslarning o'zaro uyg'unlashuvi asosida "Kooperatsiya → Raqamlashtirish → Standartlash → Servis innovatsiyasi → Bozor samaradorligi" mexanizmi asoslangan. Mazkur modeldan O'zbekiston Respublikasi Qashqadaryo viloyati hokimligi faoliyatida, jumladan, aholini ish bilan ta'minlashga qaratilgan hududiy dasturlarni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Qashqadaryo viloyati hokimligining 2026-yil 4-iyundagi 06-06/6629-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, maishiy xizmatlar sohasida yangi ish o'rinlarini yaratish, xizmat ko'rsatish subyektlari faoliyatini muvofiqlashtirish hamda hududlarning xizmatlar salohiyatidan samarali foydalanishga qaratilgan amaliy yondashuvlarni shakllantirish imkoniyati yaratilgan;

maishiy xizmatlarda resurslarni innovatsion klasterlash jarayonining konseptual yondashuvi ishlab chiqilib, unda maishiy xizmatlar samaradorligini baholashning messijerlik samaras
$$MQ_m = \frac{S}{C \cdot T \cdot I} \cdot i$$
 ko'rsatkichi taklif etilgan hamda vaqt va xarajatlarni qisqartirishga yo'naltirilgan "raqamli aqlli xizmatlar" modeli ishlab chiqilgan. Mazkur takliflardan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-fevraldagi "Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-78-son qarorida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Qashqadaryo viloyati hokimligining 2026-yil 4-iyundagi 06-06/6629-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, maishiy xizmatlar ko'rsatish jarayonlarini raqamlashtirish, xizmatlar sifati va shaffofligini oshirish, operatsion xarajatlarni qisqartirish hamda resurslardan foydalanish samaradorligini yuksaltirish imkoniyati yaratilgan;

maishiy xizmatlar bozorida diversifikatsiya va segmentatsiyani amalga oshirish modeli asosida Qashqadaryo viloyatida maishiy xizmatlar sohasini boshqarish va muvofiqlashtirishning tashkiliy-iqtisodiy tuzilmasi takomillashtirilgan hamda uning asosida mehnat unumdorligi va rentabellik ko'rsatkichlarini baholash mexanizmidan O'zbekiston Respublikasi Qashqadaryo viloyati hokimligi faoliyatida, jumladan, hududlarda maishiy xizmatlar sohasini rivojlantirish va aholi

bandligini ta'minlashga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Qashqadaryo viloyati hokimligining 2026-yil 4-iyundagi 06-06/6629-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, maishiy xizmatlar subyektlari faoliyatida raqamli texnologiyalarni joriy etish hisobiga rentabellik darajasini 36,6 foizdan 83,3 foizgacha oshirish, mehnat unumdorligini yuksaltirish va xizmatlar bozorining iqtisodiy samaradorligini kuchaytirish imkoniyati yaratilgan;

Qashqadaryo viloyati aholisi uchun maishiy xizmatlar hamda texnik va servis yo'nalishidagi xizmatlarni rivojlantirish bo'yicha 2026–2030-yillarga mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilib, ulardan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish" yilida ustuvor yo'nalishlar bo'yicha islohotlar dasturlari va "O'zbekiston– 2030" strategiyasini amalga oshirish bo'yicha davlat dasturi to'g'risida"gi PF–22-son Farmonida belgilangan xizmatlar sohasini rivojlantirish, aholi bandligini oshirish hamda hududlarning iqtisodiy faolligini kuchaytirishga oid vazifalarni amalga oshirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Qashqadaryo viloyati hokimligining 2026-yil 4-iyundagi 06-06/6629-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, maishiy xizmatlar bozorining istiqboldagi rivojlanish ko'rsatkichlarini shakllantirish, hududlarda xizmatlar hajmini kengaytirish va yangi xizmat turlarini joriy etish bo'yicha boshqaruv qarorlarining samaradorligini oshirish imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta, jumladan 2 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan va ijobiy xulosalar olingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami jami 19 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta maqola, jumladan, 6 tasi respublika va 5 tasi xorijiy jurnallarda, respublika va xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda 8 ta nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 143 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi asoslangan, maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi keltirilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Maishiy xizmatlarda klaster va resurs samaradorligini oshirishning nazariy va uslubiy jihatlari**" deb nomlangan birinchi bobida maishiy xizmatlarda klasterlash va resurs samaradorligini oshirishning nazariy yondashuvlar, maishiy xizmatlarda klasterlash jarayoning innovatsion ahamiyati va maishiy


xizmatlarda resurslar samaradorligini oshirish va klasterlashda xorij tajribasini mamlakatga qo'llash jihatlari bo'yicha tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Maishiy xizmat ko'rsatish korxonalari xizmatlar sohasi tarkibidagi boshqa tarmoqlar, jumladan savdo, umumiy ovqatlanish, maishiy xo'jaliklar va boshqa xizmat yo'nalishlari bilan uzviy bog'liq holda faoliyat yuritadi. Ushbu integratsiya uy xo'jaliklarida alohida bajarib kelinayotgan ayrim ish va xizmatlarning bosqichma-bosqich ijtimoiy ishlab chiqarish hamda umumiy xizmat ko'rsatish shakllari bilan almashtirilishiga olib kelmoqda. Natijada, maishiy xizmatlar sohasida klasterlash jarayonlari kuchayib, xizmat ko'rsatish hajmi va sifati oshishi bilan birga, resurslardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi ham ta'minlanmoqda.

Muallif fikriga ko'ra, aholiga maishiy xizmat ko'rsatishda ijtimoiy me'yorlarning keng joriy etilishi mazkur sohada klasterlash jarayonlarini samarali tashkil etish uchun muhim institutsional asos bo'lib xizmat qiladi. Bu esa maishiy xizmatlar klasterida moliyaviy intizom va shaffoflikni ta'minlaydi. Savdo-vositalachilik tizimi internet savdo platformalari, elektron savdo maydonchalari va marketpleyslar orqali maishiy xizmatlarning bozorga chiqishini kengaytiradi. Ushbu tizim raqamli savdo mexanizmlari asosida xizmatlarni tezkor realizatsiya qilish va iste'molchilar bilan samarali aloqani yo'lga qo'yishga xizmat qiladi. Nazorat tizimi esa kiberxavfsizlik monitoringi, ma'lumotlar xavfsizligi, elektron audit va raqamli nazorat mexanizmlari orqali klaster faoliyatining ishonchliligini ta'minlaydi. Regulyator organlar faoliyatining raqamlashtirilishi xizmatlar bozorida shaffoflik va hisobdorlikni kuchaytiradi.

Ushbu me'yorlar xizmat ta'minotining minimal va maqbul darajasini belgilab berib, aholining kundalik ehtiyojlarini to'laqonli qondirishga, shuningdek, maishiy xizmatlar klasterlarining barqaror faoliyat yuritishiga zamin yaratadi. Ijtimoiy me'yorlar deganda ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan ko'rsatkichlarni aniq va qat'iy belgilash tizimi tushuniladi. Ushbu ko'rsatkichlar aholining hayotiy faoliyati jarayonida, jamiyatning turli ijtimoiy guruhlar uchun muayyan davr sharoitida shakllanadigan talablarning tipik darajasini ifodalaydi.

Maishiy xizmatlar sohasida ijtimoiy me'yorlar klasterlash jarayonida resurslarni rejalashtirish, hududiy joylashuvni optimallashtirish va xizmatlar hajmini muvofiqlashtirish imkonini beradi.



1-rasm. Maishiy xizmatlar ko'rsatish sohasini klasterlash va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishning davlat-hududiy integratsiyalashgan konseptual modeli⁷

Mazkur konseptual model maishiy xizmatlar sohasini rivojlantirishda klaster yondashuvining tizimli va kompleks ahamiyatini aniq namoyon etadi. Unda davlat darajasidagi normativ-huquqiy tartibga solish, iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlari hamda hududiy xususiyatlar yagona integratsiyalashgan tizimga birlashtirilgan. Shu orqali xizmat ko'rsatish sohasi nafaqat markazlashgan boshqaruv asosida, balki hududiy ehtiyojlarga mos ravishda ham rivojlanadi. (1-rasm).

Modelning markazida joylashgan klaster barcha resurslar – korxonalar, infratuzilma, kadrlar, innovatsiyalar va raqamli boshqaruvni uyg'unlashtirib, ularning o'zaro samarali hamkorligini ta'minlaydi.

Eng muhim jihati shundaki, ushbu model faqat iqtisodiy samaradorlikni emas, balki ijtimoiy natijalarni ham ko'zda tutadi. Ya'ni bandlikning oshishi, aholi farovonligining yaxshilanishi va hududlarning barqaror rivojlanishi kabi omillar klaster yondashuvining yakuniy natijasi sifatida namoyon bo'ladi.

1- jadvalda maishiy xizmatlar sohasini klasterlashning asosiy yo'nalishlari va ularning mazmuni keltirilgan. Jadval orqali xizmatlar turli mezonlar asosida guruhlariga ajratilib, ularning iqtisodiy va tashkiliy xususiyatlari ochib berilgan.

Maishiy xizmatlar funksiyasiga ko'ra ta'mirlash, texnik, tozalash, go'zallik va ijtimoiy-maishiy xizmatlarga bo'linadi. Texnologik jihatdan ular an'anaviy, mexanizatsiyalashgan va raqamli shakllarda rivojlanadi. Hududiy tashkil etilishiga ko'ra mahalla, tuman va viloyat darajasidagi klasterlar ajratiladi.

⁷ Muallif tomonidan tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan.

Maishiy xizmatlarni klasterlash darajasi bo'yicha tasniflash jadvali⁸


Tasnif mezon	Guruh (klass)	Ilmiy mazmuni
Funksional yo'nalishiga ko'ra	Ta'mirlash va ishlab chiqarish xizmatlari	Buyumlarning iste'mol qiymatini tiklash va oshirishga qaratilgan xizmatlar
	Texnik xizmatlar	Texnika va raqamli qurilmalar uzluksiz ishlashini ta'minlovchi xizmatlar
	Tozalash va parvarish xizmatlari	Gigiyena va ekologik ehtiyojlarni qondiruvchi xizmatlar
	Go'zallik va shaxsiy parvarish	Insonning estetik va shaxsiy ehtiyojlariga yo'naltirilgan xizmatlar
	Ijtimoiy-maishiy xizmatlar	Jamiyatning ijtimoiy barqarorligiga xizmat qiluvchi xizmatlar
Texnologik darajasiga ko'ra	An'anaviy xizmatlar	Qo'l mehnati ustun bo'lgan, past texnologiyali xizmatlar
	Mexanizatsiyalashgan xizmatlar	Maxsus uskunarlar asosida ko'rsatiladigan xizmatlar
	Raqamli va innovatsion xizmatlar	IT va raqamli texnologiyalar qo'llaniladigan xizmatlar
Hududiy tashkil etilishiga ko'ra	Mahalla (mikro) klasterlari	Aholiga yaqin joylashgan, kichik hajmli xizmatlar majmui
	Tuman (mezo) klasterlari	Bir nechta xizmat turlarini birlashtiruvchi hududiy klaster
	Viloyat (makro) klasterlari	Keng ko'lamli, ixtisoslashgan xizmatlar tarmog'i
Resurslardan foydalanishiga ko'ra	Mehnat intensiv xizmatlar	Asosan inson mehnatiga tayangan xizmatlar
	Kapital intensiv xizmatlar	Texnika va uskunarlar ulushi yuqori bo'lgan xizmatlar
	Aralash xizmatlar	Mehnat va kapital resurslari uyg'unlashgan xizmatlar
		Asosan kundalik ehtiyojlarni qondiruvchi xizmatlar
Iqtisodiy natijasiga ko'ra	Past qo'shilgan qiymatli	Barqaror daromad keltiruvchi xizmatlar
	O'rta qo'shilgan qiymatli	Innovatsion va ixtisoslashgan xizmatlar
	Yuqori qo'shilgan qiymatli	
Klasterlash darajasiga ko'ra	Boshlang'ich klasterlash	Hamkorlik va kooperatsiyaning dastlabki shakli
	Rivojlanayotgan klaster	Resurslar birgalikda boshqariladigan bosqich
	To'liq klaster	Integratsiyalashgan, yuqori samarador tizim

Resurslardan foydalanish darajasiga qarab xizmatlar mehnat talab qiluvchi, kapital sig'imi yuqori va aralash turlarga bo'linadi. Iqtisodiy samaradorligi bo'yicha past, o'rta va yuqori qo'shilgan qiymatli xizmatlar farqlanadi. Klasterlash darajasi esa boshlang'ich, rivojlanayotgan va to'liq shakllangan bosqichlarni qamrab oladi.

Bunga ko'ra *Maishiy xizmatlar klasteri* - bu aholining kundalik ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan maishiy xizmatlar ko'rsatuvchi subyektlar, ularga xizmat qiluvchi infratuzilma va institutsional tuzilmalarining hududiy yaqinlik hamda raqamli integratsiya asosida o'zaro bog'langan, resurslardan samarali foydalanish va xizmatlar sifatini oshirishga yo'naltirilgan tizimdir.

2-rasmdagi yondashuv klasterlashning resurslardan oqilona foydalanishga qanchalik xizmat qilayotganini ilmiy asosda isbotlash imkonini beradi. Korrelyatsiya tahlili esa jadvalda keltirilgan indikatorlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik darajasini aniqlashga xizmat qiladi. Masalan, innovatsion xizmatlar ulushi bilan mehnat unumdorligi yoki klasterga a'zo korxonalar soni bilan xizmatlar sifati o'rtasidagi bog'lanish kuchi aniqlanadi.

⁸ Muallif tomonidan tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan.



2-rasm. Maishiy xizmatlar klasterining funksional va institutsional darajalari⁹


Klasterlashuv xizmat innovatsiyalarining muhim generatori hisoblanadi. Mazkur yondashuv asosida maishiy xizmatlarda innovatsion rivojlanish mexanizmi quyidagi ketma-ketlikda ifodalanadi:

Kooperatsiya → Raqamlashtirish → Standartlash → Servis innovatsiyasi → Bozor samaradorligi

Ushbu mexanizm sanoat klasterlaridan iste'molchi qiymati va xizmat sifatini oshirishga yo'naltirilganligi bilan farqlanadi. Taklif etilayotgan "Modernizatsiyalashgan maishiy xizmatlar klasteri" konsepsiyasi xizmatlar bozorini texnologik va institutsional jihatdan yangilash, innovatsion faollikni kuchaytirish, bandlik va daromadlar o'sishini ta'minlash hamda norasmiy xizmatlar ulushini kamaytirishga qaratilgan.

3-rasmda raqamli iqtisodiyot sharoitida maishiy xizmatlar sohasining tashkiliy-iqtisodiy tuzilmasi hamda uning asosiy tarkibiy elementlari aks ettirilgan. Unda maishiy xizmatlar klasteri faoliyatini ta'minlovchi axborot-tijorat, iqtisodiy-huquqiy, moliya-kredit, savdo-vositalachilik va nazorat tizimlarining o'zaro bog'liqligi ko'rsatilgan. Ushbu tizimlar xizmatlar bozorining barqaror rivojlanishi va raqamli transformatsiyani qo'llab-quvvatlaydi.

⁹ Muallif tomonidan tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan.



3-rasm. Maishiy xizmatlar sohasining raqamli iqtisodiyotga mos tashkiliy-iqtisodiy tuzilmasi¹⁰

2024-yilda rivojlangan xorijiy mamlakatlarning maishiy xizmatlar sohasini hajmi va uning yalpi ichki mahsulot hamda ish bilan bandlikni ta'minlashdagi ulushini 2-jadvaldan ko'rishimiz mumkin. 2-jadval ma'lumotlari maishiy xizmatlar sohasi zamonaviy iqtisodiyotning muhim va ustuvor tarmoqlaridan biri ekanligini ko'rsatadi. Rivojlangan mamlakatlarda ushbu soha yuqori hajmga ega bo'lib, bandlik va YAIMning salmoqli qismini ta'minlaydi. Xususan, AQSH, Buyuk Britaniya va Kanadada xizmatlar sohasida band aholining ulushi 70 foizdan yuqori bo'lsa, Fransiya, Italiya va Germaniyada xizmatlar sektorining YAIMdagi ulushi

¹⁰ Muallif izlanishlari natijasida ishlab chiqilgan.

iqtisodiy barqarorlikning muhim omili hisoblanadi.

2-jadval

2024-yilda ilg‘or xorijiy mamlakatlarda maishiy xizmatlar sohasining hajmi va uning yalpi ichki mahsulot hamda ish bilan bandlikni ta’minlashdagi ulushi¹¹

№	Mamlakat nomi	Maishiy xizmatlar xajmi (mlrd.dollar)	Xizmatlar sohasida band aholi (foiz hisobida)	Xizmatlar sohasining YAIM dagi ulushi (foiz hisobida)
1	AQSH	230,1	73,41	45
2	Xitoy	180,7	56,3	33,9
3	Yaponiya	160,5	62,24	42
4	Germaniya	150,7	51,68	51
5	Buyuk Britaniya	130,2	70,89	43
6	Fransiya	120,9	47,28	71
7	Italiya	120,3	50,66	66,5
8	Braziliya	110,3	60,32	71
9	Kanada	100,2	69,13	71
10	Rossiya	90,04	67,3	64

Xitoy va Braziliyada xizmatlar sohasi jadal rivojlanayotgan bo‘lsa-da, uning YAIMdagi ulushi nisbatan past bo‘lib, sanoat sektorining ustunligini saqlab qolayotganini ko‘rsatadi. Tahlillar xizmatlar sektorining rivojlanishi mamlakatning iqtisodiy taraqqiyot darajasi, mehnat bozori tuzilishi va iqtisodiy diversifikatsiya bilan bevosita bog‘liqligini tasdiqlaydi. Shu bois xizmatlar sohasini rivojlantirish, ayniqsa klaster yondashuvi asosida resurslardan kompleks foydalanish, innovatsion xizmatlarni joriy etish va xizmat ko‘rsatish tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiyaning **“Raqamli klasterlash sharoitida maishiy xizmatlar samaradorligini oshirish”** deb nomlangan ikkinchi bobida maishiy xizmatlar resurslarini innovatsion klasterlashning ijtimoiy holati, raqamli platformalar asosida xizmatlar sifatini oshirish modeli hamda Qashqadaryo viloyatida maishiy xizmatlar klasteri uchun elektron biznes axborot bazasini yaratish masalalari tahlil qilingan.

Maishiy xizmatlar sohasi iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, aholi turmush sifati, bandlik va hududiy iqtisodiy faollikni oshirishda muhim o‘rin tutadi. Qashqadaryo viloyatida ushbu sohaning rivojlanishi, avvalo, kadrlar salohiyati bilan belgilanadi. 2015-2025-yillarda sohaning o‘sishi asosan uy-joy va texnik xizmatlar, sartaroshlik, maishiy texnika ta’miri hamda transport xizmatlari hisobiga ta’minlandi. Mobil va kichik servis xizmatlarining kengayishi esa hududlarda xizmatlar bozorining faollashuviga xizmat qildi.

Tahlillar viloyatda maishiy xizmatlar sohasi barqaror o‘sish tendensiyasiga ega ekanligini ko‘rsatadi. Bu holat maishiy xizmatlar klasterlarini rivojlantirish, xizmatlarni diversifikatsiya qilish va mehnat resurslaridan samarali foydalanish orqali hududiy iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirish uchun muhim asos yaratadi.

¹¹ Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan <https://data.worldbank.org/country/> sayt ma’lumotlari jamlangan.

3-jadval ma'lumotlari Qashqadaryo viloyati va uning hududlarida 2015-2025-yillar davomida maishiy xizmatlar ulushining barqaror o'sish tendensiyasini ko'rsatadi. Tahlil natijalariga ko'ra, barcha hududlarda xizmatlar ulushi izchil oshib borgan bo'lib, o'sish koeffitsienti o'rtacha 1,32-1,47 barobarni tashkil etadi. Viloyat bo'yicha umumiy ko'rsatkich 2,0 foizdan 2,9 foizgacha oshib, 1,45 barobar o'sishni namoyon etgan. Shaharlar kesimida, xususan Qarshi va Shahrisabz shaharlarida xizmatlar ulushi yuqoriroq bo'lib, bu hududlarda infratuzilma va iqtisodiy faollik darajasi yuqoriligi bilan izohlanadi.

3-jadval

Qashqadaryo viloyati tumanlarida maishiy xizmatlar klasterlarini shakllantirish, xizmatlar turlarini diversifikatsiya qilish holati¹²

Hududlar	2015 y. maishiy xizmatlar ulushi, %	2020 y. maishiy xizmatlar ulushi, %	2025 y. maishiy xizmatlar ulushi, %	2015-2025-o'sish koeffitsienti (marta)
Qashqadaryo viloyati	2,0	2,4	2,9	1,45
Qarshi shahri	2,8	3,2	3,7	1,32
Shahrisabz shahri	2,6	3,0	3,5	1,35
Qarshi tumani	2,1	2,6	3,0	1,43
Kitob tumani	2,0	2,5	2,9	1,45
Koson tumani	1,9	2,3	2,8	1,47
Kasbi tumani	1,7	2,0	2,3	1,35
Nishon tumani	1,6	1,9	2,2	1,38
Mirishkor tumani	1,5	1,8	2,1	1,40
Dehqonobod tumani	1,4	1,7	2,0	1,43
Muborak tumani	1,8	2,2	2,6	1,44
G'uzor tumani	1,9	2,3	2,7	1,42
Chiroqchi tumani	1,8	2,2	2,6	1,44
Yakkabog' tumani	1,9	2,4	2,8	1,47
Qamashi tumani	1,8	2,2	2,6	1,44

Shu bilan birga, Koson, Yakkabog' va Kitob tumanlarida o'sish sur'atlari nisbatan yuqori (1,45-1,47), bu esa hududlarda xizmatlar sohasining kengayib borayotganidan dalolat beradi. Ayni paytda Dehqonobod, Nishon va Mirishkor kabi nisbatan past boshlang'ich ko'rsatkichlarga ega hududlarda ham ijobiy o'sish kuzatilgan bo'lsa-da, xizmatlar ulushi hali ham past darajada qolmoqda. Bu esa hududlar o'rtasida rivojlanish nomutanosibligi mavjudligini ko'rsatadi. Ayniqsa, so'nggi yillarda aholining kundalik ehtiyojlariga yo'naltirilgan xizmat turlariga talabning ortishi ushbu yo'nalishlarning tez sur'atlarda rivojlanishiga sabab bo'lgan. Shu bilan birga, sartaroshxona va kimyoviy tozalash xizmatlarida ham barqaror o'sish kuzatilib, mazkur xizmatlar aholining turmush sifati bilan bevosita bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Umuman olganda, Qashqadaryo viloyatida maishiy xizmatlar

¹² Muallif tomonidan Qashqadaryo viloyati statistika ma'lumotlari asosida ishlab chiqilgan www.stat.uz

sohasining rivojlanishi davlat tomonidan xizmatlar sohasini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar, hududiy dasturlar hamda xizmatlar infratuzilmasining bosqichma-bosqich kengayishi bilan chambarchas bog'liqdir.

Ushbu xulosaga asosan maishiy xizmatlarning raqamlashtirilgan klaster modeli samaradorligini baholashga xizmat qiluvchi quyidagi modifikatsiyalashgan rentabellik formulasi taklif etildi.

$$KXR = \frac{MD - MKTN}{MD} * 100\% \quad (1)$$

Bunda:

KXR- Maishiy xizmatlar ko'rsatishning raqamlashtirilgan klaster modeli rentabellik darajasi;

MD- Maishiy xizmatlar ko'rsatishning raqamlashtirilgan klasteridan tushgan tushumlar;

MKTN-Maishiy xizmatlar ko'rsatishning raqamlashtirilgan klasteri uchun qilingan jami xarajatlar;

Mazkur formula raqamlashtirilgan maishiy xizmatlar klasterining iqtisodiy samaradorligini baholashga xizmat qiladi. U klassik rentabellik yondashuviga asoslanib, xizmatlardan olingan daromad va jami xarajatlar o'rtasidagi nisbatni ifodalaydi. Bunda elektron platformalar, mobil ilovalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda zamonaviy servis infratuzilmasi bilan bog'liq xarajat va daromadlar yagona tizim sifatida hisobga olinadi.

Maishiy xizmatlar sohasi iqtisodiy faoliyat bilan bir qatorda muhim ijtimoiy ahamiyatga ham ega. Global transformatsiya jarayonlari ushbu sohani barqaror rivojlantirish va resurslardan samarali foydalanishni talab etmoqda. Shu asosda dissertatsiyada maishiy xizmatlar sohasining xususiyatlarini inobatga olgan holda "Raqamli aqlli xizmatlar - maishiy xizmatlar" modeli hamda xizmatlar uchun to'lovlarni hisoblashning takomillashtirilgan usuli taklif etilgan. (4-jadval).

$$Q_{um}(t, \tau) = \sum_{i=1}^s \frac{S_i(t, \tau)}{C_i(t, \tau)} \quad (2)$$

t- yilning τ - oyiga mos, amalda maishiy xizmat Bir martalik xizmatlar uchun to'lov qilish miqdori;

$$Q_{um}(t) = \sum_{i=1}^{12} Q_{um}(t, \tau) \quad (3)$$

t-yilga mos, amalda Davriy (oylik/yillik) xizmatlar uchun to'lov miqdori;

$$Q_{um}(t) = \sum_{i=1}^T Q_{um}(t) \quad (4)$$

T-yil davrda, mos holda, amalda obuna asosidagi to'lov (subscription) miqdori;


$$\bar{C}_k(t, \tau) = \frac{S_1(t, \tau) + \dots + S_5(t, \tau)}{Q_1(t, \tau) + \dots + Q_5(t, \tau)} \quad (5)$$

t- yilning τ -oyiga Raqamli hisob-kitob va Platforma orqali to'lov tarifi, so'mda;

Matematik usullardan foydalanilgan xolda raqamli aqli xizmatlar iste'moli uchun qilingan to'lov miqdori hisoblash¹³

№	Maishiy xizmatlar uchun to'lovlar miqdori turlari	Hisoblash formulasi
1	Imtiyozli to'lovlar	$\bar{M}_{tx}(t, \tau) = \frac{S_1(t, \tau) + \dots + S_n(t, \tau)}{Q_1(t, \tau) + \dots + Q_n(t, \tau)}$
2	Subsidiyalangan to'lovlar	$\bar{M}_{toz}(t, \tau) = \frac{S_2(t, \tau) + \dots + S_n(t, \tau)}{Q_2(t, \tau) + \dots + Q_n(t, \tau)}$
3	Bozor narxlari asosidagi to'lovlar	$\bar{C}_{ix}(t, \tau) = \frac{S_3(t, \tau) + \dots + S_n(t, \tau)}{Q_3(t, \tau) + \dots + Q_n(t, \tau)}$

Mazkur yondashuv raqamli xizmatlar iste'moli uchun to'lovlarni aniqlashda xarajat va xizmat hajmi o'rtasidagi nisbatni asos qilib oladi. Natijada to'lovlar tizimi shaffof, iqtisodiy asoslangan va boshqaruv uchun qulay shaklga keltiriladi.



4-rasm. Maishiy xizmatlarni raqamli klasterlash asosida tashkil etish modeli¹⁴

4-rasmdagi model maishiy xizmatlarni raqamli klasterlash orqali samarali tashkil etishni nazarda tutadi. Unda xizmat ko'rsatuvchilar, mijozlar, ta'minotchilar va moliyaviy institutlar yagona tizimda birlashadi.

¹³ Muallif tomonidan Qashqadaryo viloyati statistika ma'lumotlari asosida ishlab chiqilgan www.stat.uz

¹⁴ Muallif ilmiy izlanishlari asosida ishlangan.

Asosiy rolni raqamli platforma bajaradi - u buyurtmalarni boshqaradi, to'lovlarni amalga oshiradi va barcha jarayonlarni tahlil qiladi. Shu bilan birga, tizim davlat, ta'lim va marketing orqali qo'llab-quvvatlanadi.

Jarayon oddiy: mijoz buyurtma beradi, mos ijrochi tanlanadi, xizmat ko'rsatiladi, to'lov qilinadi va baholanadi. Barcha faoliyat ma'lumotlarga asoslangan holda boshqariladi. Natijada daromad oshadi, xarajatlar kamayadi, xizmat sifati yaxshilanadi va mijozlar qoniqishi ortadi. Shu bilan birga, yangi ish o'rinlari yaratiladi va barqaror rivojlanish ta'minlanadi.

Shu bilan birga, maishiy xizmatlar klasteri doirasida joriy etilayotgan mobil to'lov tizimining yakuniy tuzilmasi platformaga integratsiyalashgan funksional modullar orqali belgilanadi. Ushbu modullar to'lovlarni qabul qilish, qayta ishlash, nazorat qilish va monitoring qilish jarayonlarini qamrab oladi. Mobil to'lov tizimida qo'llaniladigan asosiy buyruqlar va ularning funksional tavsifi 5-jadvalda keltirilgan.

5-jadval

Mobil to'lov tizimi jarayonlarini boshqarish buyruqlari ro'yxati¹⁵

№	Komanda	Bo'yruq parametrlari	Eslatma
1	BALANCE (balansni ko'rish)	To'lov vositasi «PI»	Mijozning maishiy xizmatlar (masalan, ta'mirlash, tozalash, servis) uchun ochilgan shaxsiy hisob raqami orqali balansni tekshirish funksiyasi
2	BILL (Hisob-faktura asosida to'lov xizmati)	To'lov vositasi «PI»	Mijozning maishiy xizmatlar bo'yicha shakllangan raqamli hisob raqami orqali xizmatlar uchun to'lovni amalga oshirish jarayonini boshqarish funksiyasi .
		Mijoz nomeri «RN»	Xizmatdan foydalanuvchi subyektni yagona identifikatsiya qilish imkonini beruvchi parametr.
		Xizmat kodi «SC»	Maishiy xizmat turini (masalan: texnika ta'miri, tozalash, servis xizmatlari) klassifikatsiya qiluvchi raqamli kod.
		Pul o'tkazish «ST»	Ko'rsatilgan xizmat hajmi va tarif asosida shakllangan to'lov miqdori.
3	CONF (tasdiqlash)	Tasdiqlash kodi «SF»	Raqamli platforma yoki mobil to'lov tizimi orqali yuborilgan operatsiyani verifikatsiya qilish uchun qo'llaniladigan yagona (unikal) identifikatsiya kodi.
4	DELETE (Yozuvlarni o'chirish)	To'lov vositasi «PI»	Mijozning platformadagi virtual hisobini yoki unga tegishli xizmat yozuvlarini ma'lumotlar bazasidan o'chirishga xizmat qiluvchi boshqaruv buyrug'i. Agar identifikator mavjud bo'lmasa, tizim tegishli yozuvlarni to'liq bekor qiladi.

Mazkur jadval maishiy xizmatlar klasterida elektron to'lov tizimini

¹⁵ Muallif ilmiy izlanishlari asosida ishlangan.

boshqarishning funksional modelini ifodalaydi. Unda foydalanuvchi (mijoz) va raqamli platforma o'rtasidagi o'zaro axborot almashinuvi hamda moliyaviy tranzaksiyalarni amalga oshirish jarayonlari maxsus buyruqlar tizimi orqali tartibga solinadi.

Jadvalda keltirilgan BALANCE, BILL, CONF va DELETE buyruqlari elektron to'lov tizimining asosiy funksional modullarini tashkil etadi va ular orqali tizimning uzluksiz, xavfsiz hamda samarali ishlashi ta'minlanadi.

Buyruqlar tizimi identifikatsiya (PI, RN), klassifikatsiya (SC), moliyaviy hisob-kitob (ST) va verifikatsiya (SF) bosqichlarini qamrab olib, raqamli platformaning uzluksiz va xavfsiz ishlashini ta'minlaydi.

Mobil to'lov tizimidan foydalangan holda laboratoriya stendini tashkil etishning umumiy sxemasi 5-rasmda ta'svirlangan. Stendning asosiy elementlari (ma'lumotlar bazasi serveri, veb-server, SMS-shlyuz va MTT serveri) dan tashqari, elektron to'lov nazorat mobil telefonlari, mobil operatorlar, Internet tarmog'i va ish stansiyalaridan foydalanish sxemasi ko'rsatib o'tilgan.



5-rasm. Raqamli aqlli xizmatlar – maishiy xizmatlar klasterining elektron to'lov tizimi¹⁶

Ushbu jarayonda uyali aloqa operatorlari, mobil va internet provayderlari axborot almashinuvi va tranzaksiyalarning uzluksizligini ta'minlovchi muhim infratuzilma elementi sifatida ishtirok etadi. Markaziy qismida joylashgan raqamli

¹⁶ Muallif tomonidan ilmiy tadqiqotlar natijasi ma'lumotlari asosida sun'iy intellekt yordamida vizullashtirilgan.

to'lov platformasi maishiy xizmatlar klasterining asosiy integratsion bo'g'ini bo'lib, u tijorat banklari, xalqaro raqamli to'lov tizimlari hamda ma'lumotlarni qayta ishlash markazlari bilan o'zaro bog'langan. Bu holat to'lovlarni real vaqt rejimida qayta ishlash, nazorat qilish va monitoring qilish imkonini beradi.

Mazkur rasmda maishiy xizmatlarni raqamlashtirish va klasterlash asosida shakllantirilgan "Raqamli aqlli xizmatlar - maishiy xizmatlar klasteri" doirasida elektron to'lovlar va xizmatlar monitoringi tizimining umumiy arxitekturasini aks ettirilgan. Diagrammada tizim ishtirokchilari o'rtasidagi axborot va moliyaviy oqimlarning o'zaro bog'liqligi kompleks tarzda ifodalangan. Rasmga ko'ra, iste'molchilar mobil telefonlar orqali keyingi avlod tarmoqlari yordamida raqamli platformaga ulanadi va maishiy xizmatlarga buyurtma berish hamda to'lovlarni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Qashqadaryo viloyatida maishiy xizmatlarni raqamlashtirish va klasterlash asosida tashkil etilgan elektron biznes axborot bazasining tarkibiy, funksional va tashkiliy jihatlarini tizimli ravishda ifodalaydi.(6-jadval).

Jadvalda platformaning asosiy modullari, foydalanuvchi rollari, xavfsizlik va integratsiya mexanizmlarining yoritilishi xizmatlar ko'rsatish jarayonlarini avtomatlashtirish va boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

6-jadval

Qashqadaryo viloyatida maishiy xizmatlar uchun raqamli klaster platformasining elektron biznes axborot bazasi tuzilishi¹⁷

№	Tavsiflovchi ko'rsatkichlar	Tavsiflovchi belgilar
1	Baza nomi	Maishiy xizmatlar uchun raqamli klaster platformasining elektron biznes axborot bazasi
2	Kalit so'zlar	Maishiy xizmatlar, raqamli klaster, elektron biznes axborot bazasi, ma'lumotlar bazasi, dasturiy paketlar, xizmat ko'rsatish subyektlari, elektron to'lov tizimlari, o'zbek, rus va ingliz tillaridagi axborot bazasi
3	Umumiy topshiriqlar	Maishiy xizmatlar sohasida xizmatlar sifatini oshirishga qaratilgan raqamli klaster platformasining elektron biznes axborot bazasi konsepsiyasini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish
4	Texnik talablar	Kompyuter texnikasi, Internet tarmog'iga ulanish, 800×600 va undan yuqori ekran o'lchamlari, zarur dasturiy vositalar; Mozilla Firefox, Google Chrome, Opera va boshqa zamonaviy brauzerlar bilan moslik
5	Dasturiy vositalar	PHP, MySQL, HTML, CSS, WordPress
Maishiy xizmatlar uchun raqamli klaster platformasining elektron biznes axborot bazasi tuzilishi		
6.1	Bosh menyu	Yuqori qismida platforma logotipi va asosiy menyular joylashadi. O'rta qismida ma'lumotlarni kiritish, tahrirlash, o'zgartirish (korrektirovka) va ko'rib chiqish funksiyalari mavjud bo'ladi. Pastki qismida foydalanuvchi huquqlari, platforma haqida ma'lumot va mualliflik huquqi aks ettiriladi.
6.2	Funksional modullar	Foydalanuvchilarni ro'yxatdan o'tkazish va autentifikatsiya qilish; maishiy xizmatlarga buyurtmalarni qabul qilish va qayta ishlash; elektron to'lovlarni boshqarish; xizmatlar monitoringi va nazorat qilish; statistik tahlil va hisobotlar shakllantirish; shikoyat va takliflarni qabul qilish

¹⁷Qashqadaryo viloyati statistikasi boshqarmasining ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

6.3	Foydalanuvchi rollari	Platforma administratori; maishiy xizmat ko'rsatish korxonasi vakili; moliyaviy operator; iste'molchi
6.4	Axborot xavfsizligi	Ma'lumotlarni himoyalash, shaxsiy ma'lumotlarni shifrlash, foydalanuvchi huquqlarini chegaralash, autentifikatsiya va avtorizatsiya mexanizmlarini qo'llash
6.5	Integratsiya imkoniyatlari	Tijorat banklari, elektron to'lov tizimlari, mobil ilovalar, hududiy va boshqa axborot tizimlari bilan integratsiya
6.6	Natijaviy ko'rsatkichlar	Xizmatlar sifati va tezkorligini oshirish, to'lovlar shaffofligini ta'minlash, maishiy xizmatlar bozorida raqobatbardoshlikni kuchaytirish

Qo'lda bajariladigan va qog'oz hujjatlarga asoslangan jarayonlarning elektron shakllarga o'tkazilishi va elektron tijorat axborotlar bilan almashish tizimlaridan foydalanish tufayli istalgan tovarga buyurtma berish, uni etkazib berish va unga haq to'lash jarayonlarini ancha tezlashtirish hamda ustama xarajatlarni ancha qisqartirish mumkin. Bu esa bizga maishiy xizmatlarda "Messenjer" samarasini shakllantirishimizga asos boladi.

"Maishiy xizmatlarda messenjerlik samarasi - xizmat ko'rsatish jarayonida axborot almashinuvi tezlashuvi orqali vaqt va xarajatlarni kamaytiradi. Ushbu jarayon quyidagi formula orqali ifodalanib, bunda vaqt va axborot kechikishining kamayishi umumiy samaradorlikni oshiradi.

$$MQ_m = \frac{S}{C \cdot T \cdot I} \quad (6)$$

Bunda:

- MQ_m - messijerlik samaradorligi
- S – xizmat hajmi (yoki bajarilgan ishlar soni)
- C – xarajatlar
- T – vaqt
- I – axborot kechikishi (informatsion yo'qotishlar)

7-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar to'liq ravishda birlamchi statistik hisobotlardan olinmagan bo'lsa-da, ular rasmiy statistik manbalar asosida iqtisodiy-statistik tahlil usullari yordamida shakllantirilgan. Jadvalni ishlab chiqishda O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi hamda xizmatlar sohasi bo'yicha e'lon qilingan yillik statistik to'plam va tahliliy hisobotlardan foydalanildi.

7-jadval

Qashqadaryo viloyatida (2021–2025-yillar) maishiy xizmat ko'rsatish korxonalari rivojlanishi (birlik hisobida)¹⁸

№	Ko'rsatkichlar	2021 -y.	2022 -y.	2023 -y.	2024 -y.	2025 -y.	2021– 2025- yillarda o'sish, %
1	Maishiy xizmat ko'rsatish shoxobchalari, shu jumladan kiyim tikish ustaxonalari va atelyelar	75	81	86	92	98	130,7

¹⁸ O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.
<https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/services>

2	Poyabzal ta'mirlash ustaxonalari va yakka tartibda tikish xizmatlari	66	72	77	83	89	134,8
3	Sartaroshxonalar va go'zallik salonlari	108	121	129	138	149	138
4	Kiyimlarni kimyoviy tozalash xizmatlari	10	12	15	17	19	190
5	Foto salonlar	22	25	28	31	35	159,1
6	Maishiy texnika asboblari ta'mirlash ustaxonalari	54	59	65	71	78	144,4
7	Ijara xizmati	17	21	24	27	31	182,4

Ma'lumotlarni shakllantirishda, avvalo, xizmatlar sohasi bo'yicha rasmiy ko'rsatkichlarning dinamik qatori tahlil qilindi. So'ngra maishiy xizmatlarning umumiy xizmatlar tarkibidagi ulushi, o'sish sur'atlari va hududiy rivojlanish tendensiyalari asosida ekstrapolyatsiya hamda taqqoslama tahlil usullari qo'llanildi. Ayrim xizmat turlari bo'yicha aniq statistik ma'lumotlar mavjud bo'lmaganligi sababli, ular xizmatlar bozoridagi o'rtacha o'sish sur'atlari va hududiy mutanosiblik ko'rsatkichlari asosida hisoblab chiqildi. (8-jadval).

8-jadvalda Qarshi shahri misolida maishiy xizmatlar samaradorligini baholash bo'yicha amaliy hisob-kitoblar boshlang'ich ma'lumotlar asosida statistik ko'rsatkichlari yordamida amalga oshirildi¹⁹:

Maishiy xizmat ko'rsatish korxonalari soni - 499 ta

Bir korxonada o'rtacha band xodimlar soni – 3 kishi

Jami bandlar soni -1 497 kishi

Bir korxonaning yillik o'rtacha tushumi - 280 mln so'm

Jami yillik tushum - 139,7 mlrd so'm

O'rtacha yillik xarajatlar - 205 mln so'm

O'rtacha yillik sof foyda -75 mln so'm

Ayniqsa, raqamlashtirilgan klaster muhitida xizmat ko'rsatish jarayonlarini qayta tashkil etish mehnat unumdorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mehnat unumdorligini hisoblash quyidagi formula asosida amalga oshiriladi:

Ayniqsa, raqamlashtirilgan klaster muhitida xizmat ko'rsatish jarayonlarini qayta tashkil etish mehnat unumdorligini oshirishda mehnat unumdorligini hisoblashni quyidagicha amalga oshiramiz:

$$MU = \frac{\text{Yillik tushum}}{\text{Xodimlar soni}} \times 100\% \quad (7)$$

Hisob-kitoblarga ko'ra:

$$MU = \frac{139.7 \text{ mlrd so'm}}{1497 \text{ kishi}} = 93 \text{ mln so'm} \quad (8)$$

Demak, bir nafar xodim hissasiga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik tushum miqdori 93 mln so'mni tashkil etadi. Ushbu ko'rsatkich maishiy xizmat ko'rsatish korxonalarida mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi etarli darajada shakllanganligini hamda xizmatlar hajmi bilan bandlik o'rtasida mutanosiblik

¹⁹ O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan yozib chiqildi.

mavjudligini ifodalaydi.

Raqamlashtirilgan klaster mexanizmi joriy etilgandan keyingi prognoz tadqiqotlar asosida quyidagi iqtisodiy natijalarga erishish kutilmoqda:

- ✓ Onlayn buyurtmalar ulushi: 22 % - 40 %
- ✓ O‘rtacha yillik tushum o‘sishi: 280 mln so‘m - 330 mln so‘m
- ✓ O‘rtacha yillik xarajatlar qisqarishi: 205 mln so‘m - 180 mln so‘m
- ✓ O‘rtacha yillik sof foyda o‘sishi: 75 mln so‘m - 150 mln so‘m
- ✓ Rentabellik darajasi: 36,6 % - 83,3 %
- ✓ Mehnat unumdorligi o‘sishi: 93 mln so‘m - 112 mln so‘m
- ✓ Xizmatlar hajmi o‘sishi: +18 %
- ✓ Xarajatlar qisqarishi: -12 %
- ✓ Mehnat unumdorligi o‘sishi: +20 %

Mazkur natijalar raqamlashtirish va klaster yondashuvini maishiy xizmatlar sohasiga joriy etish korxonalar faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirish, xizmatlar hajmini kengaytirish hamda mehnat resurslaridan foydalanish darajasini yaxshilashda muhim omil bo‘lib xizmat qilishini ko‘rsatadi.

8-jadval

Qarshi shahrida 2025–2030-yillarda raqamlashtirilgan klaster mexanizmlarini joriy etish natijasidagi iqtisodiy ko‘rsatkichlar prognozi²⁰

Ko‘rsatkich	Joriy holat	Raqamlashtirishdan keyin
O‘rtacha yillik tushum (1 korxona)	280 mln so‘m	330 mln so‘m
O‘rtacha yillik xarajat	205 mln so‘m	180 mln so‘m
O‘rtacha yillik foyda	75 mln so‘m	150 mln so‘m
Rentabellik darajasi	36,6 %	83,3 %
Mehnat unumdorligi	93 mln so‘m	112 mln so‘m

Rentabellikni hisoblash formulasi:

$$R = \frac{Foyda}{Xarajat} \times 100 \quad (9)$$

Raqamlashtirishdan oldin:

$$R = \frac{75}{205} \times 100 = 36,6\% \quad (10)$$

Raqamlashtirishdan keyin:

$$R = \frac{150}{180} \times 100 \approx 83,3\% \quad (11)$$

O‘tkazilgan amaliy hisob-kitoblar shuni ko‘rsatadiki, Qarshi shahrida raqamlashtirilgan klaster mexanizmlarini joriy etish maishiy xizmatlar sohasida

²⁰ “Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari hamda muallifning hisob-kitoblari asosida tuzildi.

sezilarli iqtisodiy samara beradi. Xususan, xizmatlar hajmining oshishi, xarajatlarning qisqarishi va mehnat unumdorligining o'sishi natijasida korxonalar rentabelligi deyarli ikki baravar ortadi. Ushbu natijalar hududiy maishiy xizmatlar bozorini barqaror rivojlantirish va raqobatbardoshligini oshirish uchun ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi. Iqtisodiyotning jonlanishi va barqaror o'sishi sharoitida mehnat intensivligi masalalari dolzarb hisoblanadi.

Trend tenglamalari orqali Qashqadaryo viloyati misolida maishiy xizmatlar sohasini rivojlantirish va xizmatlar sifatini oshirish imkoniyatlari bo'yicha asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarning prognoz parametrlari hisoblab chiqildi. Ushbu prognozlar maishiy xizmatlar ko'rsatish hajmining o'sish dinamikasi, resurslardan foydalanish samaradorligi va bozor talabining istiqboldagi holatini baholash imkonini berdi. Prognoz hisob-kitoblarini amalga oshirishdan avval, Qashqadaryo viloyatida maishiy xizmatlar ko'rsatish hajmi, texnik xizmatlar, ta'mirlash, uy-ro'zg'or xizmatlari va boshqa maishiy xizmat turlari bo'yicha 2008-2025-yillarga oid statistik ma'lumotlar tizimlashtirildi va batafsil tahlil qilindi. Ushbu tahlil natijalari maishiy xizmatlar sohasida resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish hamda xizmatlar bozorini barqaror rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish imkonini berdi. (9-jadval).

9-jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, 2008–2025-yillar davomida Qashqadaryo viloyati aholisi uchun maishiy xizmatlar ko'rsatish hajmi 46,2 barobar oshgan, shuningdek texnik xizmatlar va sinovga oid maishiy xizmatlar hajmi 17,8 barobarga ko'paygan. Mazkur o'sish sur'atlari viloyatda maishiy xizmatlar bozorining jadal rivojlanayotganini, aholining ushbu xizmatlarga bo'lgan talabi ortib borayotganini hamda xizmatlar ko'rsatish tarmoqlarining kengayib borayotganini yaqqol tasdiqlaydi.

9-jadval

Qashqadaryo viloyati aholisi uchun maishiy xizmatlar hamda texnik va servis yo'nalishidagi xizmatlar ko'rsatish hajmining 2008-2025-yillardagi statistik ma'lumotlari (mlrd.so'm)²¹

<i>N^o</i>	<i>Yillar</i>	($\sum K_{mx}$) - Viloyat aholisi uchun maishiy xizmatlar ko'rsatish hajmi, (mlrd. so'm)	($\sum T_{sMx}$) - Viloyat aholisi uchun texnik sinov va servis yo'nalishidagi maishiy xizmatlar ko'rsatish hajmi, (mlrd. so'm)
1	2	3	4
2	2008	5,4	4,9
3	2009	7,8	7,7
4	2010	12,4	9,1
5	2011	14,1	12,3
6	2012	18,3	14,7
7	2013	26,7	15,8

²¹ Qashqadaryo viloyati statistikasi boshqarmasining ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

8	2014	31,4	20,3
9	2015	40,6	12,3
10	2016	63,7	16,9
11	2017	89,5	20,6
12	2018	108,3	21,2
13	2019	136,9	33,3
14	2020	170,2	30,0
15	2021	191,3	50,3
16	2022	226,9	76,7
17	2023	235,6	82,1
18	2024	249,9	87,6
19	2025	251,3	88,9

Mazkur jadvalda viloyat aholisi uchun maishiy xizmatlar hamda texnik va servis yo‘nalishidagi xizmatlar bo‘yicha 2008-2025-yillardagi o‘zgarishlar dinamikasi asosida qurilgan grafiklar va trend modellari aks ettirilgan.

6-rasmda keltirilgan ma‘lumotlar asosida har bir ko‘rsatkichning holatini aniqlash imkoniyati mavjud. Viloyat aholisi uchun maishiy xizmatlar ko‘rsatish hajmi ($\sum Km_x$) hamda viloyat aholisi uchun texnik va servis yo‘nalishidagi maishiy xizmatlar ko‘rsatish hajmlari ($\sum TsM_x$) bo‘yicha qurilgan matematik modellarning approksimatsiyasi polinomial chiziqqa mos keldi va quyidagi formula orqali ifodalandi:

$$Y_{Km_x} = 1,1174t^2 - 5,8976t + 11,148$$

$$R^2 = 0,9913$$


$$Y_{TsM_x} = 0,07t^3 - 1,4942t^2 + 10,575t - 11,268$$

$$R^2 = 0,9585$$

Bunda:

Y- aniqlanayotgan yilda viloyat aholisi uchun maishiy xizmatlar ko‘rsatish hajmi (qiymati);

R^2 -bu matematik modelning determinatsiya koeffitsiyenti.



6-rasm. Viloyat aholisi uchun maishiy xizmatlar hamda texnik va servis yo‘nalishidagi xizmatlar ko‘rsatish hajmining grafigi va trend modellari (mlrd. so‘mda)²²

²² Qashqadaryo viloyati statistikasi boshqarmasining ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Ushbu modeldan foydalanib, Qashqadaryo viloyati aholisi uchun maishiy xizmatlar ko'rsatish hajmining 2026-2030-yillarga mo'ljallangan prognoz hisob-kitoblarini amalga oshiramiz:

$$Y_{2026}=1,1174*18^2 - 5,8976*18 + 11,148=267,03$$

$$Y_{2027}=1,1174*19^2 - 5,8976*19 + 11,148=302,48$$

$$Y_{2028}=1,1174*20^2 - 5,8976*20 + 11,148=340,16$$

$$Y_{2029}=1,1174*21^2 - 5,8976*21 + 11,148=380,07$$

$$Y_{2030}=1,1174*22^2 - 5,8976*22 + 11,148=422,22$$

Viloyat aholisi uchun texnik sinov va servis yo'nalishidagi maishiy xizmatlar ko'rsatish hajmining 2025–2030 yillarga mo'ljallangan prognozi:

$$Y_{2026}=0,07*18^3-1,4942*18^2+10,575*18-11,268=103,20$$

$$Y_{2027}=0,07*19^3-1,4942*19^2+10,575*19-11,268=130,38$$

$$Y_{2028}=0,07*20^3-1,4942*20^2+10,575*20-11,268=162,55$$

$$Y_{2029}=0,07*21^3-1,4942*21^2+10,575*21-11,268=200,13$$

$$Y_{2030}=0,07*22^3-1,4942*22^2+10,575*22-11,268=243,55$$

Viloyat aholisi uchun maishiy xizmatlar hamda texnik va servis yo'nalishidagi maishiy xizmatlarni rivojlantirish bo'yicha asosiy ko'rsatkichlarning 2025-2030-yillarga mo'ljallangan prognoz hisob-kitoblari amalga oshirildi.

Yuqorida keltirilgan prognoz ko'rsatkichlari bo'yicha matematik modellarning turlari va vaqtli qatorlar asosida o'zgarish jarayoni aks ettirildi. Tahlil natijalaridan ko'rinib turibdiki, amalga oshirilgan prognoz hisob-kitoblarida viloyat aholisi uchun maishiy xizmatlar hamda texnik va servis yo'nalishidagi maishiy xizmatlar ko'rsatish hajmining ortib borishi polinomial model asosida baholandi.

Mazkur ma'lumotlar asosida maishiy xizmatlarning ikki asosiy yo'nalishi bo'yicha ko'rsatkichlarning istiqboldagi holati prognoz qilindi. O'tkazilgan hisob-kitoblar natijalari 10-jadvalda keltirilgan bo'lib, ular maishiy xizmatlar sohasining 2025-2030 yillarda barqaror rivojlanish tendensiyasiga ega ekanligini ko'rsatadi.

10-jadval

Qashqadaryo viloyati aholisi uchun maishiy xizmatlar hamda texnik va servis yo'nalishidagi maishiy xizmatlarni rivojlantirish bo'yicha 2026-2030-yillarga mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlari²³

№	Yillar	Prognoz ko'rsatkichlar	
		$(\sum Km_x)$ (mlrd.sum)	$(\sum TsM_x)$ (mlrd.sum)
1	2	3	4
2	2026	267,03	103,20
3	2027	302,48	130,38
4	2028	340,156	162,55
5	2029	380,07	200,13
6	2030	422,22	243,55

10-jadval ma'lumotlari viloyat aholisi uchun maishiy xizmatlar ko'rsatish hajmi bo'yicha asosiy ko'rsatkichlarning 2025-yilga nisbatan 2026-2030-yillar

²³ Qashqadaryo viloyati statistikasi boshqarmasining ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

davomida qanday o'zgarishini aks ettiradi. Prognoz ma'lumotlariga ko'ra, viloyat aholisi uchun maishiy xizmatlar ko'rsatish hajmi 2025-yilga nisbatan 2026 yilga kelib 1,06 barobar, 2030-yilga kelib esa 1,68 barobar oshishi kutilmoqda. Shuningdek, texnik sinov va servis yo'nalishidagi maishiy xizmatlar ko'rsatish hajmi 2025- yilga nisbatan 2026-yilga kelib 1,17 barobar, 2030 yilga kelib esa 2,74 barobarga oshishi prognoz qilinmoqda. O'tkazilgan tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, maishiy xizmatlar sohasining rivojlanishini prognozlashda ushbu jarayonga ta'sir etuvchi omillarni har tomonlama va kompleks o'rganish zarur. Natijalarning uzoq muddatli prognoz variantlari ko'rib chiqilib, hududiy xususiyatlarni hisobga olgan holda modellashtirildi.

XULOSA

Mazkur dissertatsiya ishida maishiy xizmatlar sohasida resurslardan samarali foydalanish, klasterlash mexanizmlarini joriy etish hamda ularni raqamlashtirish asosida rivojlantirishning nazariy-uslubiy va amaliy jihatlarini kompleks tarzda tadqiq etildi. Olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida quyidagi ilmiy xulosa, taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Dissertatsiyada maishiy xizmatlar sohasining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati tahlil qilinib, u zamonaviy iqtisodiyotda ijtimoiy yo'naltirilgan xizmatlar tizimi hamda resurslardan samarali foydalanishga asoslangan faoliyat sifatida talqin etildi. Shuningdek, "maishiy xizmatlar klasteri" xizmat ko'rsatuvchi subyektlar, infratuzilma, mehnat resurslari va innovatsiyalarning integratsiyalashgan tizimi sifatida aniqlashtirildi. .

2. Maishiy xizmatlar sohasida resurs samaradorligini baholashning ilmiy-uslubiy asoslari takomillashtirilib, mehnat sifati, moddiy-texnik ta'minot, xizmatlar diversifikatsiyasi va boshqaruv samaradorligiga asoslangan kompleks baholash yondashuvi ishlab chiqildi. Ushbu yondashuv xizmatlar sifati va iqtisodiy natijadorlik o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash imkonini beradi.

3. Tadqiqot natijasida maishiy xizmatlar sohasida klasterlash resurslardan samarali foydalanishning muhim mexanizmi ekanligi asoslandi. Shu asosda maishiy xizmatlar sohasini klasterlash va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishning davlat-hududiy integratsiyalashgan konseptual modeli ishlab chiqilib, unda funksional va institutsional darajalar hamda infratuzilmaviy resurslar integratsiyasi orqali kooperatsiya, raqamlashtirish, standartlashtirish, servis innovatsiyalari va bozor samaradorligini oshirish imkoniyatlari asoslab berildi.

4. Tadqiqotda maishiy xizmatlar sohasida resurslarni innovatsion klasterlashning konseptual yondashuvi ishlab chiqilib, messijerlik samarasi $MQ_m = \frac{S}{C \cdot T \cdot I}$ asosida samaradorlikni baholash mexanizmi taklif etildi. Shuningdek, vaqt va xarajatlarni qisqartirishga xizmat qiluvchi "raqamli aqlli xizmatlar" modeli ishlab chiqilib, unda xizmat sifati va shaffofligini oshirish, hisob-kitoblarni takomillashtirish, tavakkalchilik hamda operatsion xatarlarni boshqarish imkoniyatlari asoslandi.

5. Maishiy xizmatlar sohasida innovatsion rivojlanishni ta'minlash maqsadida

yagona raqamli platforma asosida xizmat ko'rsatish tizimini tashkil etish, xizmatlarni onlayn boshqarish va iste'molchilar bilan o'zaro aloqalarni raqamlashtirish zarurligi asoslandi. Ushbu tizim "raqamli aqlli xizmatlar" modelini amaliyotga joriy etish orqali xizmatlar bozorining ochiqligi, shaffofligi va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilishi aniqlandi.

6. Hududiy rivojlanish nuqtayi nazaridan maishiy xizmatlar bozorida diversifikatsiya va segmentatsiyani amalga oshirish modeli ishlab chiqildi hamda Qashqadaryo viloyatida sohani boshqarish va muvofiqlashtirishning tashkiliy-iqtisodiy tuzilmasi takomillashtirildi. Natijada raqamlashtirishni joriy etish mehnat unumdorligi va rentabellik ko'rsatkichlarini sezilarli yaxshilashi, resurslardan foydalanish samaradorligi 36,6 foizdan 83,3 foizgacha oshishi ilmiy hisob-kitoblar asosida asoslandi.

7. Maishiy xizmatlar sohasini istiqbolda rivojlantirish uchun klasterlash, raqamlashtirish va innovatsion yondashuvlarni integratsiyalashgan holda qo'llashga asoslangan kompleks rivojlanish modeli ishlab chiqildi. Mazkur model asosida Qashqadaryo viloyatida maishiy xizmatlar hamda texnik va servis yo'nalishidagi xizmatlarni rivojlantirish bo'yicha 2026–2030-yillarga mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilib, xizmatlar hajmini oshirish, bandlikni kengaytirish va hududiy iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish imkoniyatlari belgilandi.

8. Hududiy rivojlanish nuqtayi nazaridan maishiy xizmatlar sohasini klasterlash asosida rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqilib, unda hududlarning iqtisodiy salohiyati, aholi ehtiyojlari va infratuzilma darajasi hisobga olingan holda differensial yondashuv zarurligi asoslandi.

9. Tadqiqot natijalariga ko'ra, maishiy xizmatlar sohasini rivojlantirish ijtimoiy samaradorlikni ham ta'minlab, yangi ish o'rinlari yaratish, aholi bandligini oshirish va turmush sifatini yaxshilashga xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslandi.

10. Maishiy xizmatlar sohasini istiqbolda rivojlantirish uchun klasterlash, raqamlashtirish va innovatsion yondashuvlarni integratsiyalashgan holda qo'llashga asoslangan kompleks rivojlanish modeli ishlab chiqildi. Ushbu model xizmatlar hajmini oshirish, resurslardan samarali foydalanish va hududiy iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish imkonini beradi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/2025.27.12.I.11.03
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ КАРШИНСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

КАРШИНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

НОРМУРОВОВА ЗЕБО ЭШМАХМАТОВНА

**ИННОВАЦИОННЫЕ МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ
ЭФФЕКТИВНОСТИ КЛАСТЕРОВ И РЕСУРСОВ В СФЕРЕ БЫТОВЫХ
УСЛУГ (НА ПРИМЕРЕ КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ)**

08.00.05 – Экономика сферы услуг

АВТОРЕФЕРАТ

диссертация доктора философии (PhD) по экономическим наукам

Карши – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Академии наук Республики Узбекистан под номером B2026.1.Phd/Iqt6331

Диссертация выполнена в Каршинский государственный университет.

Аннотация диссертации размещен на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на веб-странице Ученого совета (www.qarshidu.uz) и на информационно-образовательном портале «Ziynet» (www.ziynet.uz)

Научный руководитель:

Халимов Жавлонбек Шахриёрович
доктор экономических наук (DSc), доцент

Rasmiy opponentlar:

Кодиров Фаррух Эргаш угли
доктор экономических наук (DSc), доцент

Абдуганиев Отабек Аллажонович
доктор экономических наук (DSc), профессор

Ведущая организация:

Наманганский государственный технический университет

Защита диссертации состоится на заседании Научного совета по присуждению учёных степеней DSc.03/2025.27.12.1.11.03 при Каршинский государственный университет, которое состоится « 19 » 08 2026 года в 10⁰⁰ часов. Адрес: 180119, г. Карши, ул. Кучабог, дом 17. Тел.: (+998 75) 221-21-04, факс: (+998 75) 220-02-10, e-mail: info@qarshidu.uz.

С диссертацией доктора философии (PhD) можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каршинский государственный университет (регистрационный номер № 441). Адрес: 180119, г. Карши, ул. Кучабог, дом 17. Тел.: (+998 75) 221-21-04, факс: (+998 75) 220-02-10).

Аннотация диссертации разослан « 08 » 08 2026 года.
(Протокола рассылки № 17 от « 08 » 08 2026 года)



Д.Х. Набиев

Председатель совета по
присуждению учёных
степеней, д.э.н., профессор

Г.А. Набиев

Ученый секретарь совета
по присуждению учёных
степеней, д.э.н., профессор

А.О. Очиллов

Председатель научного
семинара при совете по
присуждению учёных
степеней д.э.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность темы диссертации. В условиях ускорения процессов глобализации, развития цифровой экономики и усиления конкуренции на рынке услуг сфера услуг становится одним из ключевых факторов экономического роста. По данным Всемирного банка и Организации Объединённых Наций, доля сектора услуг в мировом валовом внутреннем продукте превышает 65 %, а в развитых странах составляет 70–80 %²⁴. При этом доля населения, занятого в сфере услуг, во многих странах превышает 70 %²⁵. Однако на рынке услуг сохраняются такие проблемы, как неэффективное использование ресурсов, неравномерное развитие качества и конкурентоспособности услуг в разрезе регионов, низкий уровень цифровизации, а также слабые кооперационные связи между хозяйствующими субъектами. В связи с этим особое научное и практическое значение приобретают вопросы внедрения инновационных механизмов управления в сфере бытовых услуг и повышения эффективности ресурсов на основе кластерного подхода.

В развитых странах мира процессы глобализации и цифровой трансформации оказывают существенное влияние на структурные изменения рынка услуг. В этих условиях расширяются научные исследования, направленные на эффективную организацию и управление сферой бытовых услуг, повышение гибкости рынка услуг, совершенствование институциональной среды и усиление конкурентоспособности. В частности, Цели устойчивого развития ООН до 2030 года, Генеральное соглашение по торговле услугами Всемирной торговой организации (ГАТС - GATS), рекомендации Организации экономического сотрудничества и развития (ОЭСР - OECD), а также программа Европейского Союза “Digital Europe Programme” формируют важные институциональные основы для внедрения инноваций и повышения эффективности в секторе услуг. Кроме того, одним из приоритетных направлений научных исследований является обеспечение устойчивого развития рынка услуг посредством внедрения современных механизмов управления в процессы оказания услуг, использования гибких форм трудовых отношений, развития кооперации между субъектами кластеров и внедрения стандартов Международной организации труда (МОТ) в практику.

В экономике Нового Узбекистана в последние годы также уделяется особое внимание развитию сферы услуг, в том числе бытовых услуг. В течение 2020-2025 годов наблюдалась тенденция устойчивого роста объемов сферы услуг, и прогнозируется, что данный процесс продолжится и в 2026 году. Согласно официальным статистическим и прогнозным расчетам, в 2026 году ожидается увеличение объема оказания бытовых услуг в среднем в 1,8 раза по

²⁴ World Bank. World Development Indicators. Services, value added (% of GDP). Washington, DC: World Bank Group, 2024.

²⁵ United Nations Conference on Trade and Development (UNCTAD). World Investment Report 2024. Geneva: United Nations, 2024.

сравнению с 2020 годом²⁶. Этот рост объясняется увеличением реальных доходов населения, диверсификацией видов услуг, повышением активности субъектов предпринимательства и внедрением цифровых технологий. С этой точки зрения статистические показатели и прогнозные результаты 2026 года полностью обосновывают актуальность научных исследований, направленных на применение кластерного подхода в сфере бытовых услуг, повышение ресурсоэффективности, а также устойчивое увеличение качества и объема услуг. Данное обстоятельство подтверждает теоретическую и практическую значимость темы диссертации.

Данное диссертационное исследование в определённой степени способствует реализации задач, определённых в Послании Президента Республики Узбекистан Олий Мажлису от 24 января 2020 года, Указе Президента Республики Узбекистан № УП-4947 от 7 февраля 2017 года “О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан”, Указе Президента Республики Узбекистан № УП-5052 от 24 мая 2017 года “О мерах по дальнейшему развитию сферы услуг и коренному повышению эффективности её деятельности”, постановлениях Президента Республики Узбекистан № ПП-3782 от 11 июня 2018 года “Об организационных мерах по стимулированию обеспечения занятости социально уязвимых слоёв населения”, № ПП-4498 от 24 октября 2019 года “О дополнительных мерах по совершенствованию порядка кредитования проектов, реализуемых в рамках государственных программ развития семейного предпринимательства”, № ПП-4742 от 8 июня 2020 года “О мерах по упрощению государственного регулирования предпринимательской деятельности и самозанятости”, постановлении Президента Республики Узбекистан № ПП-104 от 27 января 2022 года “О дополнительных мерах по развитию сферы услуг”, постановлении Президента Республики Узбекистан № ПП-238 от 27 июля 2023 года “О мерах по дальнейшему ускорению реформ в сфере услуг и эффективной организации системы государственного управления в данной сфере”, постановлении Президента Республики Узбекистан № ПП-78 от 27 февраля 2025 года “О дополнительных мерах по созданию благоприятных условий для устойчивого развития сферы услуг”, а также других нормативно-правовых актах, регулирующих данную сферу деятельности.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологии в республике. Исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики – “Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики”.

Степень изученности проблемы. Научно-методологические аспекты развития сферы услуг и сервиса исследованы в трудах многих зарубежных учёных, в частности Дж. М. Кейнса, Й. А. Шумпетера, М. Э. Портера, К. Х. Хаксевера, Р. Г. Мердика, У. Д. Нордхауса, С. Н. Коробковой, Г. С. Беккера, Ф. Котлера, К. Келлера, П. А. Самуэльсона, М. Драбенстотта, В. И. Кравченко,

²⁶ Национальный комитет Республики Узбекистан по статистике- <https://stat.uz>

Г. Филдса, Б. Рендера, Р. С. Рассела и других²⁷.

Среди учёных стран СНГ вопросы развития сферы услуг нашли широкое отражение в исследованиях Е. А. Разомасовой, Т. Д. Бурменко, Ю. П. Свириденко, Е. Г. Ясина, С. Ю. Глазьева, О. В. Коневой, Н. А. Соловьёвой, А. Г. Аганбегяна, Т. А. Агаповой, С. Ф. Серегинной, З. И. Беликиной, В. М. Дмитриева, В. Н. Кряжева, В. С. Немчинова, В. К. Романовича, Н. Ю. Стоюшко, С. А. Махошевой, М. В. Шебенкова, Д. А. Хомякова, Е. В. Щербины, Е. В. Горбенковой и других²⁸.

Проблемы развития сферы услуг в Республике Узбекистан всесторонне исследованы в научных трудах отечественных учёных, в частности Я. А. Абдуллаева, К. Ж. Мирзаева, М. М. Мухамедова, Б. А. Абдукаримова, М. К. Пардаева, И. С. Тухлиева, Ж. Р. Зайналова, А. Ахмедова, Н. Тухлиева, Э. С. Файзиева, М. Г. Хана, Р. Х. Эргашева, У. Р. Матякубова, Ф. А. Зулуновой, Ж. И. Исроилова, А. К. Гаппарова, Ш. О. Кувондикова, Г. Н. Ахуновой, Ш. Ш. Шодмонова, У. В. Гафурова, Б. Кузибоева²⁹ и других.

²⁷ Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег. – Москва: МИЭМП, 2010. – 352 с.; Шумпетер Й.А. История экономического анализа / Пер. с англ.; под ред. В.С. Автономова. В 3-х томах. – Санкт-Петербург: Экономическая школа, 2004. – Т. 1-3. – 1664 с.; Портер М.Й. Конкурентное преимущество: как достичь высокого результата и обеспечить его устойчивость / пер. с англ. Е. Калининой. – Москва: Алпина Паблишер, 2016. – 1020 с.; Свириденко Й.П. Сервисная деятельность. – М.: Алфа-М, 2009-208 с.; Samuelson P. A., W. D Nordhaus. Economics. – New York: McGraw-Hill, 2010-774 p.; Becker G. S. Human Capital. – Chicago: University of Chicago Press, 2018.-412 p.; Романович В.К. Сервисная деятельность. – Санкт-Петербург: Питер, 2005. – 156 с. 33.; Kotler P., Keller K.L. Marketing Management. – 16th Global Edition. – Harlow: Pearson Education Limited, 2022. – 832 p 28. Fields G.S. Labor Economics and Development. – Cham, Switzerland: Springer International Publishing, 2019. – 328 p.; Drabenstott M. New policies for a new rural America // International Regional Science Review. – 2001. – №24. – Р. 3-15. Хаксвер К.Х., Рендер Б.Р., Рассел Р.С., Мердик Р.Г. Управление и организация в сфере услуг: теория и практика // Service Management and Operations / пер. с англ.; под науч. ред. В.В. Кулибановой. – 2-е международное изд. – Санкт-Петербург: Питер, 2002. – 751 с.

